

JINLASH JARAYONIDA PAXTA TOLASINI SIFAT KORSATKICHINI OSHIRISH.

Anafiyeva Shalola Ubaydullo qizi.

Andijon mashinasozlik instituti.

MSSB yonalish 2-kurs talabasi.

Annotatsiya: Maqolada paxta tolasini jinnlash jarayonidan keyingi tabiiy sifat ko'rsatkichlarini xalqaro universal tola standarti asosida amaliy tadqiqotlari aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: paxta tolesi, sifat, xalqaro universal standart, arrali jin, xomashyo kamerasi, mexanik shikastlanish, arrali silindr, kalta tolalar, yuqori o'rtacha uzunlik, mikroneyr, HVI tizimi.

Kirish.

Paxta tolesi to'qimachi-lik va yengil sanoatida o'zining afzal-ligi bilan XX asrda o'ta muhim xomashyo sifatida ishlatilayotgan tolalar ichida yetakchi bo'lib kelmoqda. Dunyoda bugungi kunda 20 mln.tonna atrofida paxta tolesi ishlab chiqarilib, to'qi-machilik korxonalariga yetkazib berilmoqda. Paxta tolesi yetkazib berish borasida Xitoy Xalq Respublikasi yetak-chilik qilib, yiliga 4,2-4,4 mln.tonna paxta tolesi ishlab chiqarmoqda. To-lani sifat ko'rsatkichlari bo'yicha Bremen raunttest sinovlari, Liverpul koterovkasini shakllanishi borasida narx differensatsiyasi har doimgidek tolaning sifatidan tashqari, paxta yetishtiruvchi mamlakatlardagi hosildor-likga ham bog'liq bo'lmoqda. Har qanday sharitdan qat'iy nazar, paxta to-lasi sifatini yanada oshirib borish sanoatchilar oldiga katta vazifa qilib qo'yilgan.

Paxta tozalash korxonalarimizda o'rta tolali paxta navlarini jinnash, chigitdan tolalarni ajratib olinishi asosan 3 XDDM, 4 DP-130, 5 DP-130 rusumli arrali jin mashinalarida amalga oshirilmoqda. Arrali jin-larni AQSHdagi "Kontenental" va "Lyummus" kompaniyalarida ishlab chiqarilgan jinlarni Xitoydag'i va AQSHdagi mashinalarini ishlash prinsipi deyarli bir hil bo'lib, paxta tolalari chigitdan jinning arrali silindrida ajratilib olinmoqda [1,2].

Paxta tolasini tabiiy sifat ko'rsatkichlari hamda shu tolalarni arrali jin mashinasidan keyingi sifat ko'rsatkichlari zamonaviy HVI 900 SA instrumental laboratoriya tizimida aniqlanib, tajriba va tadqiqot ishla-ri o'tkazildi. Tajriba va tadqiqotlarni o'tkazilishidan asosiy maqsad, arrali jin mashinasida chigitlardan to-lalarni xomashyo kamerasida arrali silindr yordamida ajratilishi jara-yonida arralar tola sifatiga qay dara-jada yoki qancha foizda mexanik shi-kastlanish keltirayotganini aniqlash-dan iborat.

Arrali jinning xomashyo kamerasidagi chigitli paxtaning harakati, chigitlarni o'z vaqtida kameradan chiq ib ketolmay, ma'lum qismi kamerada 12-14 daqiqa aylanib qolib ketishi, chigitlarni ma'lum qismini mexanik shikastlanishi va ma'lum foiz tola-larni arralarda kesilishi muammo- lari saqlanib qolmoqda. Tola sifa-tiga salbiy ta'sir qiluvchi tola chi- gallari, kombinatsiyalangan chigallar, tugunaklar va chigit po'stlog'lari ham aynan arrali jinning xomashyo kame-rasida vujudga kelmoqda.

Tadqiqotlar natijalari.

Tajribalar xalqaro universal paxta to- lasi standarti bo'yicha, tola sifat ko'rsatkichlarini aniqlash uchun mo'l- jallangan HVI 900 SA instrumental laboratoriya tizimida, IV va V tip- dagi o'rta tolali S 65-24, Namangan-34, Namangan-77 seleksiya navlaridagi tolalarda o'tkazildi. Tadqiqot natijalari quyidagi jadvallarda, HVI 900 SA instrumental labaratoriya tizimidagi atama va sifat ko'rsatkichlari xalqaro universal paxta standarti asosida berilmoqda.

Xulosa.

Yuqoridagi jadvallardagi sifat ko'rsatkichlar bo'yicha xulosa qiladigan bo'lsak, paxta tolasini tabiiy sifat ko'rsatkich-lariga asosan jin mashinasи aniq va ma'lum foiz mexanik shikastlanish keltirayotgani ko'rinoqda. Xususan, uzunlik bo'yicha bir xillik foizi (Unf), kalta tolalar indeksi foizi (SFI), hamda yuqori o'rtacha uzunlik (Len) bo'yicha xalqaro universal paxta tolsi standart sifat ko'rsatkichlarda bu holat yaqqol ko'rinoqda. 3-jadvaldan ko'rini turibdiki, bu solishtirma arrali jin tabiiy paxta tolasini chigitdan ajratishda kalta tolalarni o'rta hisobda 2.5 foizga ko'payishiga, uzunlik bo'yicha bir xil-likni o'rtacha 2.4 foizga kamayishiga hamda yuqori o'rtacha uzunlikni esa o'rta hisobda 1.7-2.0 mm.ga kamaytirishga olib kelar ekan. Tadqiqot va tajriba- lardan yana bir xulosa kelib chiqadi, xalqaro universal paxta tolsi standartida, tola arrali mashinasida jin-langanda tolaning sarg'ishlik, mikro-neyr va boshqa sifat ko'rsatkichlari o'z-garmay saqlanib qoladi. Mikroneyr, ya'ni tolaning pishib yetilganligi va ingichka, qalinligi paxta maydonida shakllanib bo'ladi. Bu ko'rsatkichga ma-shinaning ta'siri yo'q. Kalta tolalar foizini arrali jindan so'ng o'rta hi-sobda 2.5 foizga ko'payishi nafaqat paxta tozalash korxonasiiga, balki ka-lava ip yigirish korxonalariga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqqa-rish va standart talablari va tajri-balardan ma'lumki, 0.5 dyyumdan (12.7 mm.dan) o'lchami past bo'lgan paxta tolalari yigiruvga yaroqsiz hisobla- nadi.

ADABIYOTLAR

1. G.D.Djabbarov, S.D.Baltayev, D.A.Kotov, N.D.Solovyev, Pervichnaya "raxtani kayta ishlash" -M; 1978. -S. 148-163.
2. Эгамбердиев Ф. О. и др. ТАКОМИЛЛАШТИРИЛГАН ИККИ БАРАБАНИЛИ ТУГРИ ОЛИМЛИ ТОЛА ТОЗАЛАГИЧ УСКУНАСИННИГ ТОЗАЛАШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ //Журнал Технических исследований. - 2020. - Т. 3. - №. 5.
3. Egamberdiev F. et al. Theoretical study of the impact aimed at improving the efficiency of fiber cleaning //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. - IOP Publishing, 2021. - Т. 939. - №. 1. - С. 012032.
4. Юлдашева М. Т. и др. ИЗМЕНЕНИЕ КАЧЕСТВЕННЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ НИТЕЙ, ВЫРАБОТАННЫХ ИЗ ВОЛОКОНО С РАЗЛИЧНЫМИ ПОКАЗАТЕЛЯМИ ВЕРХНЕЙ СРЕДНЕЙ ДЛИНЫ //Наука и Мир. - 2016. - Т. 1. - №. 4. - С. 76-78.
5. Юлдашева М. Т. и др. Влияние смеси различных отходов шелка на неровноту и физико-механические свойства пряжи //Молодой ученый. - 2016. -№. 1. - С. 238-243.
6. Egamberdiev F. O. dr. IMPROVING THE CLEANING EFFICIENCY OF THE IMPROVED TWO-DRUM DIRECT FLOW FLAX CLEANING EQUIPMENT //Journal of Technical Research. - 2020. - Т. 5. - №. 3.
7. Jumaniyazov K., Egamberdiev F. O., Abbazov I. Z. The Effect of Crop Type on Cotton Quality Indicators //International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. - Т. 7. - С. 13510-13518.
8. Эгамбердиев Ф. О., Валиева З. Ф. Влияние состава типовой сортировки и технологических процессов на механическое повреждение волокон //Молодой ученый. - 2018. - №. 17. - С. 97-100.
9. Doniyorova M. A., Kayumov A. K., Doniyorov B. B. Analysis of technological performance of tappet ark //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. - 2022. - Т. 12. - №. 1. - С. 270-272.
10. Daminov A. et al. Experimental determination of the wave height of the base and yarns in the tissue and a new method for measuring the tissue thickness without contact //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. - IOP Publishing, 2021. - Т. 939. - №. 1. - С. 012077.